



HAZARASP TUMANIDA JOYLASHGAN TURISTIK OBYEKTTLAR

Urganch davlat universiteti magistrantri

Hayitova Onaxon

Annatatsiya: Xorazm viloyatida bugungi kunda turizm ancha rivojlanib kelayotgan soha hisoblanadi. Shunga muvofiq Hazarasp tumani ham o'ziga xos turizmga ega bo'lgan hudud sifatida bir qancha turistik obyektlar joylashgan hudud sifatida viloyatda o'ziga xos o'ringa ega.

Kalit so'zlar: Hazarasp, qal'a, Sulaymonqal'a, masjid, haykal, Ezgulik monumenti

Аннотация: В Хорезмской области в настоящее время туризм является достаточно активно развивающейся отраслью. В соответствии с этим Хазараспский район также занимает особое место в области как территория, обладающая собственным туристическим потенциалом и рядом туристических объектов.

Ключевые слова: Хазарасп, крепость, Сулейман-кала, мечеть, памятник, монумент «Эзгулик»

Annotation: At present, tourism is a sector that is developing quite actively in the Khorezm region. Accordingly, the Khazarasp district also holds a special place in the region as an area with its own tourism potential and a number of tourist facilities.

Keywords: Khazarasp, fortress, Suleiman-kala, mosque, monument, Ezgulik Monument

Hazorasp – O'zbekiston Respublikasi Xorazm viloyatining Hazorasp tumanidagi shahar, tuman markazi. Xorazm viloyatining sharqida, Toshkent – Urganch avtomagistrali va temir yo'l yoqasida joylashgan. transport yo'li stansiyasi. Viloyat markazi (Urganch shahri) dan 45 km janubi-sharqda. Aholisi 85 ming kishi (2025). Hazorasp hududidan o'tgan Hazorasp, Hassayop, Otaliq, Sipoi kanal va ariqlaridan suv oladi. Hazorasp shahrining yoshi 3000 yilga teng va O'zbekiston hududidagi eng qadimiy shahar hisoblanadi. Hazorasp-Xorazm shaharlarining bobokaloni va eng qadimiysi hisoblanadi hamda "Avesto" vatani hisoblanadi. Hazorasp shahri buyuk allomalar vatani, shuningdek, savdogarlar shahri va haqli ravishda Hazorasp Xorazm





vohasining "tilla darvozasi" hamda savdo markazi hisoblanadi. Hazorasp shahri-3000 yoshda. Hozirgi kunda viloyat o'ziga xos turizm rivojlanib birayotgan hudud sifatida ajraslib turibdi. Tuman o'ziga xos tarixga ega hudud hisoblanadi

1-jadval

Hazarasp tumanida joylashgan turistik obyektlar


Arxeologiya yodgorliklari	Arxitektura obyektlari	Muqaaddas va ziyoratgoh joylar	Haykaltaroshlik obyektlari	Rekratsiya resurslari	Agroturizm obyektlari
Hazarasp qal'a	Abdul Marjon Said Vaqqos maqbarasi	Do'stlik ko'chasidagi ikkinchi jahon urushi monamenti	Mingchi otliq haykali	Kemping hazarasp	"Hazarasp agro-turizm point"
Qoraqosh tepa majmuasi	Abdurahmon Xudoyqulov qishloq uyi	Mustaqillik ko'chasidagi ikkinchi jahon urushi monamenti	Motamsarona haykali	Yoshlar bog'i	"Bo'ston agro-ekologik fermer" MCHJ
Chingiz tepa	Juma masjidi	Hazarasp tumani Yangiariq qishlog'ida gi ikkinchi jahon urushi monamenti	Ezgulik monamenti		"Hazarasp agro-fermer" MCHJ
Sandiqli bobo shaharchasi	Ismoil eshon bobo maqbarasi				



Tuproqqal'a shaharchasi	Kranj bobo maqbarasi				
Sartarosh qal'a	Muzrobshox Xorazmiy maqbarasi				
Meshkenli qal'a	Tanobli maqbarasi				
Naustepalig	Shayx Qosim bobo maqbarasi				
Uch o'choq mozor qo'rg'onlar i guruhi	Sheyx Husayn maqbarasi				
Eshon rabot karvonsaro y	Shaxid bobo maqbarasi				
	Pir bobo maqbarasi				
	Toshsaqa yodgorliklari				
	Toshmozor qo'rg'oni				

Jadval muallif tomonidan tuzilgan

Sulaymon qal'a (yoki Hazorasp qal'asi, Hazorasp shahri qal'a devori) — O'zbekiston Respublikasining Xorazm viloyati Hazorasp tumanidagi eng qadimiy qal'alardan biri. Miloddan avvalgi IV–II asrlarga oid bo'lgan qal'a bugungi kunda „Sulaymon qal'a“ mahallasida joylashgan. Sulaymon qal'a O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 2019-yil 4-oktyabrda Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga kiritilgan va davlat muhofazasiga olingan[1]. Hozirda Xorazm viloyati madaniy meros boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida davlat mulki hisoblanadi[2]. Qal'a Hazorasp tumanida joylashgan bo'lib, milodiy V asrda yashab hukmronlik qilgan shaxsning





qarorgohi bo'lganligi ham aytiladi. Qal'a devorlari hozirgi kungacha saqlanib qolgan bo'lib, uning xavfsizligini ta'minlash maqsadida qal'a devorlarining osti ko'l bilan o'rab olingan. Mahalliy xalq bu ko'lga „Oydin ko'li“ deb nom bergan. Ko'lining o'ziga xos jihati uning doimiy ravishda chuchuk suv bilan ta'minlanib turilganidadir. Tarixiy manbalarga keltirilishicha, bir vaqtlar ko'l ostida yer osti yo'li mavjud bo'lgan. Qal'aning eng yuqori qismida joylashgan tepalikdan astronomik kuzatuvlar olib borish maqsadida foydalanilgan[3]. „Tarixi Jahongo'sha“ asarining muallifi bo'lgan Juvayniy: „G'aznaviylar davlati hukmdori Sulton Mahmud o'zining Xorazmga qilgan uchinchi yurishi vaqtida mustahkam Hazorasp qal'asini ikki oylik og'ir qamaldan keyingina bo'ysundirgan“, — deb yozadi.

Xumbuztepa – yodgorligi Xazorasp shahridan 17 km sharqda Amudaryoning so'l sohilida joylashgan. Dastlab bu yodgorlik O'zR FA Qoraqalpoq filialining tarix, til va adabiyot instituti arxeologiya bo'limining M.Mambetullaev boshchiligidagi arxeologik otryadi tomonidan 1973 yilda Xorazm viloyatining arxeologik xaritasini tuzish asnosida tadqiq qilindi.[1] 1974 va 1978 yillarda aynan M.Mambetullaev boshchiligidagi yodgorlikda arxeologik tadqiqotlar davom ettirildi.[2] M.Mambetullaev tadqiqotlariga ko'ra Xumbuztepa yodgorligi 4,6 ga ni tashkil etadi. Lekin hozirgi kunga kelib bu hudud ekin maydonlari va turar-joylar hisobiga qisqargan. Shuningdek yodgorlikning katta qismini Amudaryo suvlari yuvib ketgan. Daryo tomondan jarlikda 1,5 – 2 m qalinlikdagi madaniy qatlamlar izlari aniq bilinib turibdi. Qurilish konstruksiyalari ichida ko'plab kulolchilik xumbuzlarining aks etishi yodgorlikda kulolchilik ishlab chiqarishining uzoq davom etganligini va Xumbuztepa nomining yodgorlikka bejiz berilmaganini ko'rsatadi.[3] V. A. Livshits xulosasiga ko'ra „Xum“ so'zi qadimgi Eron tilida yirik sopol idish (Avesto tilida „xumba“, qadimgi hind tilida „kumbha“, fors va tojik tillarida „xumb, xum“), shuningdek pishirishga tayyorlangan har qanday loy idish, bundan tashqari – idishni pishirishga mo'ljallangan maydoncha ma'nolarini anglatadi.[4] Xumbuztepa manzilgohi dastlabki tadqiqotlar davrida janubi-sharqqa tomon 520 m ga cho'zilgan, eni 65-82 m ni tashkil etgan. Yodgorlik hududi asosan tekislikdan iborat bo'lib, uning yuzasi juda ko'plab sopol buyumlarning qoldiqlari bilan qoplangan. Kulolchilik xumbuzlarining yongan qizil dog' holatidagi izlari va kuchli pishirilgan sopol qoldiqlari asosan yodgorlikning o'rta qismida uchraydi. Manzilgohning yoshini va hayot bosqichlarini aniqlash maqsadida, uning





o'rta qismida stratigrafik shurf solindi. Shurf materikkacha etkazildi va madaniy qatlam qalinligi 2,1 m ni tashkil etdi. Yodgorlikning sharqiy qismida jarlik tomondan yaqqol ko'rinib turgan madaniy qatlamni tozalash orqali ham stratigrafik ma'lumotlar olindi. Olib borilgan qidiruv ishlari natijasida juda boy sopol majmualari qo'lga kiritildi. Eng quyi madaniy qatlamlardan (V – IV yaruslar) qovurg'asimon jussali va manjetsimon gardishli idish devorlari topildi. Tashqi yuzasi oq yorug' angob bilan bo'yalgan. Shuningdek manjetsimon gardishli tog'ora va jom ham topildi. Bu topilmalarning o'xshash jihatdan topilmalari Dingilja qo'rg'oni[5] va Ko'zaliqir[6] yodgorliklarida topilgan bo'lib mil.av. VI – V asrlar bilan belgilangan. Xumbuztepa topilgan sopol buyumlar ham aynan shu davrga to'g'ri keladi. IV – III yaruslardan topilgan sopol bo'laklari ichida asosan xumlar, xumchalarning ko'pligi e'tiborlidir. Bu xumlar va xumchalarning gardishlari oval shaklda bo'lib, yuzasi asosan yorug' rangli angob bilan qoplangan, jingalaksimon yoki vertikal shakldagi qizil bo'yoqlar bilan naqshlangan. Bunday tipdagi idishlar Xorazmda mil.av. IV – III asrlarda keng tarqalgan bo'lib, Qo'yqirilganqal'a, Jonbosqal'a, Bozorqal'a, Qal'aliqir – 1 va 2 yodgorliklarida ham aniqlangan.[7] II – I yaruslardan topilgan sopol buyumlar bo'laklarining ba'zi detallarida o'zgarishlar yuz bergan. Yirik idishlar gardishi cho'zinchoq, ancha shishirilgan bo'lib, yuzasi oq yorug' va qizil angob bilan qoplangan. Xorazmda bunday shakldagi idishlar mil. I – III asrlarda keng tarqalgan.[8] M.Mambetullaev tadqiqotlari asosan, arxeologik qidiruv doirasida bo'lgani uchun yodgorlikning paydo bo'lishi va hayot bosqichlarini aniqlash lozim edi. Shunga ko'ra, yodgorlikda hayot mil.av. VI asrdan to mil. IV asrgacha davom etgan, degan xulosaga kelingan.[3] 1992 yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Ya. G'ulomov nomidagi Arxeologiya instituti ilmiy xodimlari Yu. Manilov boshchiligida Xumbuztepa manzilgohida navbatdagi tadqiqotlarni olib bordilar.[9] Bu davrga kelib yodgorlik hududi ancha qisqardi. Bunga sabab sobiq Sho'rolar davrida yangi ekin maydonlarining kengayishi, turar-joylarning barpo etilishidir. Manzilgoh hududi uzunligi 520 m dan 225-235 m gacha, eni esa 65-82 m dan 20-40 m gacha qisqardi. Yodgorlikda 3 ta joyda transheya qazildi. Transheya № 2 va № 3 larda madaniy qatlamlar aniqlanmadi. Ekin tomorqalarini barpo etish jarayonida madaniy qatlamlar buzilib Amudaryo sohiliga surib chiqarilgan va turli davrlarga oid sopol idishlar aralashmasidan iborat ahlat yuzaga kelgan. Faqat transheya № 1 da arxaik davrga oid madaniy qatlamlar qayd





qilingan. 1996 – 1997 yillarda Xumbuztepada keyingi tadqiqotlarni O‘zR FA Arxeologiya institutining Xorazm mintaqaviy bo‘limi va Rossiya FA N. N. Mikluxo-Maklay nomidagi etnologiya va antropologiya institutining ilmiy xodimlari olib bordilar.[10] Yodgorlikning shimolida 2 ta joyda qazishma va 1 ta joyda stratigrafik shurf qazildi. Arxeologik tadqiqotlar manzilgohda hayot bosqichlarining ketma-ket davom qilgan bir necha davrini aniqladi. S. Bolelov yodgorlikda hayot mil.av. VII asrdan to mil.av. IV asr oxirigacha davom etgan degan xulosaga keldi. Madaniy qatlamlardan aniqlangan boy kulolchilik materiallari asosida 3 ta kulolchilik majmuasini ishlab chiqdi. Bular: Xumbuztepa – I (mil.av. VII asr oxiri – mil.av. VI asrning 1-yarmi); Xumbuztepa – II (mil.av. VI asr oxiri – mil.av. V asr boshi); Xumbuztepa – III (mil.av. V asr oxiri – mil.av. IV asr boshi) majmualaridir. 2002 yilda Xumbuztepada arxeologik tadqiqotlarni O‘zR FA qoshidagi Arxeologiya instituti hamda shu institutning Xorazm mintaqaviy bo‘limi va O‘zR FA sining Qoraqalpoq filialining arxeologiya bo‘limi ilmiy xodimlari davom etdirdilar.[11] Tadqiqotlar davomida 4 ta joyda qazishma qilindi (Qazishma № 3, № 4, № 5, № 6). Biroq shulardan faqat 2 tasida madaniy qatlamlar saqlanib qolgan (Qazishma № 4, № 6). Bu qazishmalarda madaniy qatlamlar qalinligi 2 m dan ziyodni tashkil etdi va ishlar materikkacha olib borildi. Stratigrafik tahlillar asosida yodgorlik hayoti 4 ta xronologik davrga ajratildi va quyidagi 4 ta kulolchilik majmuasi ajratib ko‘rsatiladi: Xumbuztepa – I (mil.av. VII – VI asrlar); Xumbuztepa – II (mil.av. VI – V asrlar); Xumbuztepa – III (mil.av. V – IV asrlar); Xumbuztepa – IV (mil.av. IV – III asrlar) majmualaridir. Olingan ma’lumotlar asosida S.Baratov yodgorlikda hayot mil.av. VII – III asrlarda mavjud bo‘lganligini ta’kidladi. Tadqiqotchilar Xumbuztepadagi sopol buyumlar davrini aniqlashda nafaqat shakli, balki ishlanish texnikasi bilan ham o‘ziga yaqin bo‘lgan Yoz II, III xronologik jadvali asosida xulosaga kelishgan. Xumbuztepa Janubiy Xorazm kulolchilik ishlab chiqarish markazi sifatida arxaik va antik davrning ilk bosqichlarida Xorazmning katta hududini sopol buyumlar bilan ta’minlab turgan. Arxaik va antik davrga oid bunday yirik ishlab chiqarish markazlari O‘rta Osiyoda ko‘p uchramaydi. Hozirgacha Xumbuztepa bilan birgalikda Afrosiyob yaqinida shunday kulolchilik ishlab chiqarish markazi aniqlangan. Kulolchilik ishlab chiqarishining uyushgan tarzda tashkil etilishi bu markazlarga davlat darajasida e’tibor berilganligini ko‘rsatadi. Yodgorlik hali to‘laligicha tadqiq qilib bo‘lingan emas. Kulolchilik sohasini





o'rganishdagi ahamiyatini e'tiborga oladigan bo'lsak yodgorlikda keng statsionar tadqiqotlar olib borish zarur. Xumbuztepani arxeologik jihatdan to'liq o'rganish orqali Xorazm vohasida o'zbek davlatchiligining shakllanishi, shaharsozlik madaniyatining vujudga kelishi va arxaik davr kulolchilik ishlab chiqarishining taraqqiyotiga dahldor yangi manbalarni qo'lga kiritish imkoniyatlari mavjuddir.

Chingiztepa – Xorazm viloyati Hazorasp shahri hududidan 18 km sharqda toshsoqa hududida joylashgan arxeologik yodgorlik. Chingiztepa majmuasi 3 ta arxeologik yodgorlikdan tashkil topgan.

Chingiztepa-1 – boshqa nomi Katta Chingiztepa. Yodgorlik konussimon shaklda qurilgan bo'lib, balandligi 18 metrni tashkil qiladi. Ayrim qismlaridagi balandligi 20 metrgacha boradi. Tepalikning asosi 60 metrni tashkil qiladi. Tepalikdan topilgan buyumlar miloddan avvalgi IV-II asrlarga borib taqaladi. Ayrim turdagi sopol buyumlar esa milodiy XII-XIII asrlarga oid. Topografik jihatdan Xumbuztepa yodgorligi bilan bog'langan.

Chingiztepa-2 – ya'ni kichik chingiztepa. Yodgorlik Chingiztepa-1 yodgorligidan 300 metr shimolda joylashgan bo'lib aylanasi 21 metr va balandligi 3.5 metrni tashkil qiladi[1]. Chingiztepa-2 yodgorligidan topilgan buyumlar Chingiztepa-1 yodgorligidan topilgan buyumlar bilan bir xildir. Chingiztepa – katta Chingiztepadan 3 km janubi-g'arbda joylashgan.

Yodgorlik qo'rg'on shaklida bo'lib, diametri 30 metr va balandligi 3 metrni tashkil qiladi. Hamma yodgorliklar qum va tosh aralshmasidan bunyod etilgan bo'lib, mahalliy aholi orasida bu yodgorlikning paydo bo'lishi Chingizxon bilan bog'liqligi aytiladi. Mahalliy aholi Chingizxon o'z qo'shinining sonini bilish maqsadida ahr bir askarga kichik bir tosgni bir joyga tashlashni buyuradi va Chingiztepa tepaligi vujudga keladi deyilar. Shu tariqa tepalik 1220-1221 yillarda bunyod etilgan deyiladi[2].

Sandikli bobo shaharchasi — O'zbekistondagi madaniy meros obyekti. Arxeologiya yodgorligi. Obyekt davri: VII-VIII, IX—XII asrlar. Xorazm viloyatining Hazorasp tumanida joylashgan. Obyekt manzili: “Ovshar” QFY. Ko'chmas mulkka bo'lgan huquq: Davlat mulki. Xorazm viloyati madaniy meros boshqarmasi operativ boshqaruv xuquqi asosida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 2019-yil 4-oktabrda Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga kiritilgan — davlat muhofazasiga olingan.





Tuproqqal'a — Xorazmning qadimgi shaharqal'a xarobasi; milodiy III—IV asrlardagi xorazmshohlar qarorgohi. Hozirgi Tuproqqal'a Qoraqalpog'istonning Beruniy shahri atrofida joylashgan va „Ellik qal'a vohasi“ tarkibiga kiradi[1]. U yerda devor rasmlari, tangalar va arxivlar topilgan[1][2]. Uning tarixi milodiy I—V asrlarni o'z ichiga oladi[1].

Tuproqqal'a 1938—1950-yillarda S. P. Tolstoye rahbarligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi tomonidan o'rganilgan. Uning tarhi to'g'ri burchakli (500×350 m) bo'lib, gumbazsimon yo'lakli va burjli mudofaa devori bilan o'ralgan. Devorning mustahkam janubiy darvozasidan otashkada tomonga markaziy ko'cha o'tgan. Ko'ndalang tushgan ko'chalar shaharni 10 ta kvartalga (mahalla) ajratgan. Tuproqqal'aning madaniy qatlamidan milod boshlaridan VI asrgacha bo'lgan davrga oid ashyoviy materiallar chiqqan. Tuproqqal'aning shimoli-sharqiy qismida maxsus ko'tarma supa (balandligi 14 m, maydoni 80*80 m) ustiga xom g'ishtdan saroy qurilgan. Unga yondosh qilib balandligi 25 m li 3 ta minorasi bo'lgan ark binosi (maydoni 40×40 m) bunyod etilgan. Arkka sharq tomonidan ko'tarma yo'lak orqali kirilgan. Tuproqqal'adan 100 ga yaqin turar joy, xo'jalik binolari va 8 ta saroy xonalari topilgan. Xonalar devori bo'rtma naqshlar va relyefli rangli haykallar bilan bezatilgan (qarang Tuproqqal'a devoriy rasmlari va haykallari). Tuproqqal'aning sharqiy qismida qurol-aslaha ustaxonasi bo'lgan, u yerdan temir nayzalar, 3 parrakli o'qlar, saroyning yemirilib ketgan 2-qavatidagi podsho arxividan esa teri va yog'och taxtachalarga yozilgan 100 dan ortiq hujjatlar topilgan. Ular qadimiy xorazmiy tilida bitilgan (I—III asrlar). Tuproqqal'adan jun, shoyi, ip gazlama parchalari, bo'yra, rangli gilam, ko'plab haykal bo'laklari, sopol buyumlar va Kushon tangalari topilgan. Qal'a sug'orish inshootlarining buzilishi, harbiy to'qnashuvlar natijasida xarobaga aylangan.

Meshekli qal'asi — O'zbekistondagi madaniy meros obyekti. Arxeologiya yodgorligi. Obyekt davri: Mil.av. V—mil. XII—XIII asrlar. Xorazm viloyatining Hazorasp tumanida joylashgan. Obyekt manzili: Tuproq qal'a mavzesi. Ko'chmas mulkka bo'lgan huquq: Davlat mulki. Xorazm viloyati madaniy meros boshqarmasi operativ boshqaruv xuquqi asosida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 2019-yil 4-oktabrda Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga kiritilgan — davlat muhofazasiga olingan[1][2].





Abdul Marjon Said Vaqqos yodgorligi – O‘zbekistondagi madaniy me‘ros obyekti. XIX-XX asrlarda qurilgan. Bino Xorazm viloyati Hazorasp tumanining Beshta qishloq fuqarolar yig‘inida joylashgan. Obyekt davlat mulki hisoblanib, Xorazm viloyati madaniy meros boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida boshqariladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 2014-yil 5-dekabrda 335-sonli "Tarixiy, baadiy yoki o‘zga madaniy qimmatligi tufayli garov va ipoteka qo‘llanishi mumkin bo‘lmagan obyektlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risidagi qaroriga muvofiq Abdul Marjon Said Vaqqos yodgorligi garov va ipoteka qo‘llanishi mumkin bo‘lmagan obyektlar sirasiga kiritildi[2]

Ismoil Eshon bobo maqbarasi (yoki Ismoil Eshonbobo maqbarasi) — O‘zbekiston Respublikasining Xorazm viloyati Hazorasp tumanidagi arxitektura yodgorligi. Maqbara XVI hamda XIX asrlarga oid bo‘lib, bugungi kunda „Yangibozor“ qishloq fuqarolar yig‘ini, Aloqali Ko‘l mahallasida joylashgan. Ismoil Eshon bobo maqbarasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 2019-yil 4-oktyabrda Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatiga kiritilgan va davlat muhofazasiga olingan[1]. Hozirda Xorazm viloyati madaniy meros boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida davlat mulki hisoblanadi[2]. Maqbara Ismoil eshonbobo majmuasining bir qismidir. Ismoil eshonning qabri Hazorasp tumanida joylashgan. Ismoil Eshon asli Turkmaniston hududida mashhur bo‘lgan Nurotaning avlodi bo‘lib, Xorazmda tug‘ilgan va yoshlik chog‘ida Buxoro madrasalarining birida ta‘lim olgan. Keyinchalik Xorazmga qaytib kelgan va qorixona ochib, o‘z atrofiga so‘filarni to‘plagan.

Ismoil Eshon mahalliy aholining yordami bilan masjid bunyod ettirgan. Masjid shimolga qaratib qurilgan 3 gumbazli ayvondan iborat bo‘lib, ro‘parasida joylashgan Ismoil Eshon maqbarasi bir xonali, peshtog‘i esa gumbazlidir[3]. Ismoil Eshon bobo majmuasiga kiruvchi masjid va maqbaraning umumiy tarhi 28x17 m ni tashkil qiladi, atrofi devor bilan o‘ralgan, hovliligi[4]. Eshonning vafotidan keyin bu joylar muqaddas ziyoratgohga aylantirilgan. Eshonga e‘tiqod bog‘lagan kishilar har yili uning qabri atroflarini obod qilib turishgan, tug‘-a‘lamlar tikilib, atrofiga boshqa e‘tiborli shaxslar dafn etilgan. Sovetlar davrida maqbara qarovsiz holatga kelib qolgan. 1992-yili qayta ta‘mirlanib, atrofi obodonlashtirilgan[5].





Muzrobshoh Xorazmiy maqbarasi – XVI—XVIII asrlar Xorazm viloyati Hazorasp tumanidagi me'moriy yodgorlik[1]. Maqbara Xorazmdagi davlat va din arbobi bo'lmish Muzrobshoh sharafiga bunyod etilgan[2]. Maqbara bir xonali, peshtog'i gumbazli, pishiq g'ishtdan qurilgan bo'lib, ortiqcha bezak ishlatilmagan. Maqbara tarhi 7,3x8,3 m, go'rxona murabba tarhli 4,9x4,9 m. Peshtoqi Xorazm me'morchiligiga xos uslubda – kiraverishi chuqur ravoqli, ikki yon tomonlariga va tepasiga mayda ravoqchalar ishlangan. Yuqorisi g'ishtli sharafa bilan yakunlangan. Mahalliy aholi tilida bu maqbara „Shohpir qadamjosi“ deb ataladi[3]. Muzrobshoh Xorazmiy maqbarasi XVI—XVIII asrlarga oid bo'lib, hozirda Hazorasp tumani, Oybek MFY, Muxomon qishlog'ida joylashgan[1]. Maqbara nomi VIII asrda yashagan Xorazm podshosi Abu Muharram Muhammad Muzrobshoh nomi bilan bog'liq. Muzrobshoh 705-yilda tug'ilib, 775-yilda vafot etgan. Muzrobshoh Xorazmiyni Hazorasp shahrining bosh qabristoniga dafn qilishgan[1]. Muzrobshoh Xorazmiyning hurmati sababli ushbu maqbara aholi o'rtasida Shohbobo, Hazrati shoh va Shohpir nomi bilan ham tanilgan. Sharqshunos olimlar Abdulla Ahmedov, Ro'zimboy Olloyorov, viloyat bosh imom-xatibi Xayrulla Abdullayevlarning o'rganishlari natijasida shu ma'lum bo'ldiki, Muzrobshoh Xorazmiy Abu Muslimning safdoshi bo'lgan[3]. Xalq tomonidan „Shohpir“ deb atalashiga esa asoschisi Ali ibn Abu Tolib bo'lgan javonmardlik tariqatini tarqatishi, ko'plab muridlari bo'lganligidir[3]. Qabr ustiga o'z davrida qurilgan maqbara yillar o'tishi tufayli buzilib ketgan. Ushbu maqbara o'rnida XVII asr o'rtalari, ya'ni 1655-yilda Abulg'ozixon farmoniga ko'ra yangi maqbara qurilgan[3]. Muzrobshoh nomli yana bir maqbara Darxonda mavjud. Maqbara to'g'ri to'rtburchakli hajmda, prizmasimon geometrik shaklda. Maqbarada simmetrik, bir nechta yarusli ravoqlarning jipsligi orqali murakkab relyefni hosil qilgan peshtoq yagona bir fasad sifatida barpo etilgan. Kirish eshigining arkasimon ravog'idan boshqa peshtoqning ikkinchi yarusidagi ravoqlar chuqurlashgan holda ishlangan bo'lib, bir nechta qavatdan yashkil topgan. Ushbu uslubdagi me'moriy yodgorliklar Husayn bobo va Hoji Amin maqbaralarida ham uchraydi. Gumbaz sakkiz qirrali o'qsimon arkalardan tashkil topgan. Suvoqlanmagan, xona devorlarida xovvozalar qurilmasini eslatib turuvchi konsol yog'och ishlanmalar mavjud[1].

Shayx Qosim bobo maqbarasi – O'zbekistondagi madaniy me'ros obyekti. VII asrda qurilgan. Bino Xorazm viloyati Hazorasp tumanining Yangibozor qishloq





fuqarolar yig'ida joylashgan. Obyekt davlat mulki hisoblanib, Xorazm viloyati madaniy meros boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida boshqariladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 2014-yil 5-dekabrda 335-sonli "Tarixiy, baadiy yoki o'zga madaniy qimmatligi tufayli garov va ipoteka qo'llanishi mumkin bo'lmagan obyektlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risidagi qaroriga muvofiq Shayx Qosim bobo maqbarasi garov va ipoteka qo'llanishi mumkin bo'lmagan obyektlar sirasiga kiritildi.

Ikkinchi jahon urush qatnashchilari xotirasiga o'rnatilgan haykali — O'zbekistondagi madaniy me'ros obyekti. 1978-yilda qurilgan. Bino Xorazm viloyati Hazorasp tumanining Mustaqillik ko'chasida joylashgan. Bino davlat mulki hisoblanib, Xorazm viloyati madaniy meros boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida boshqariladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 2014-yil 5-dekabrda 335-sonli "Tarixiy, baadiy yoki o'zga madaniy qimmatligi tufayli garov va ipoteka qo'llanishi mumkin bo'lmagan obyektlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risidagi qaroriga muvofiq Ikkinchi jahon urush qatnashchilari xotirasiga o'rnatilgan haykali garov va ipoteka qo'llanishi mumkin bo'lmagan obyektlar sirasiga kiritildi.

Sartarosh karvonsaroy xarobasi — O'zbekistondagi madaniy meros obyekti. Arxeologiya yodgorligi. Obyekt davri: X asr. Xorazm viloyatining Hazorasp tumanida joylashgan. Obyekt manzili: Tuproq qala mavzesi. Ko'chmas mulkka bo'lgan huquq: Davlat mulki. Xorazm viloyati madaniy meros boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 2019-yil 4-oktabrda Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga kiritilgan — davlat muhofazasiga olingan

Toshmozor qo'rg'onlar guruhi — O'zbekistondagi madaniy meros obyekti. Arxeologiya yodgorligi. Obyekt davri: Mil.av. X—IV asrlar. Xorazm viloyatining Hazorasp tumanida joylashgan. Obyekt manzili: Tuproq qala mavzesi. Ko'chmas mulkka bo'lgan huquq: Davlat mulki. Xorazm viloyati madaniy meros boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 2019-yil 4-oktabrda Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga kiritilgan — davlat muhofazasiga olingan.

Naustepaligi — O'zbekistondagi madaniy meros obyekti. Arxeologiya yodgorligi. Obyekt davri: Mil.av. V asr. Xorazm viloyatining Hazorasp tumanida





joylashgan. Obyekt manzili: Tuproq qal'a mavzesi. Ko'chmas mulkka bo'lgan huquq: Davlat mulki. Xorazm viloyati madaniy meros boshqarmasi operativ boshqaruv xuquqi asosida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 2019-yil 4-oktabrda Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga kiritilgan — davlat muhofazasiga olingan[1][2].

Uch o'choq mozor qo'rg'onlari guruhi — O'zbekistondagi madaniy meros obyekti. Arxeologiya yodgorligi. Obyekt davri: Mil.av. X—IV asrlar. Xorazm viloyatining Hazorasp tumanida joylashgan. Obyekt manzili: Tuproq qal'a mavzesi . Ko'chmas mulkka bo'lgan huquq: Davlat mulki. Xorazm viloyati madaniy meros boshqarmasi operativ boshqaruv xuquqi asosida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 2019-yil 4-oktabrda Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga kiritilgan — davlat muhofazasiga olingan

Xulosa. Hozirgi kunda turizm eng rivojlangan soha hisoblanadi. Aynan Xorazm viloyatida ham turizm sohasi bo'yicha katta rivojlanish ishlari olib borilmoqda. Prezidentimiz tomonidan farmon va qarorlar qabul qilinib katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1."O'zbekiston respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora tadbirlar to'g'isida"gi PF-5611-Son, 2019-yil 5-yanvar
- 2.Abduxalikov K.A. Mountaiun and Mountain Tourism in Uzbekistan; Potential and Development Factors International of Academic and Appiled Research ISSN: 2000-005XV Vol.Issue -2019
- 3.Xorazm viloyati turizm boshqarmasi hisoboti

